

# Yashil

# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 290 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

## Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari .....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna</b>	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda .....	20
<b>Muxiddin Kalonov</b>	
“Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish .....	24
<b>Muhammadiyeva Maftuna</b>	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati .....	27
<b>Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna</b>	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
<b>Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich</b>	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
<b>Ахмедходжаев Равшан Темурович</b>	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari .....	49
<b>Toyirov Yunus Alamovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
<b>Rustamov Alisher Raxmataliyevich</b>	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
<b>Ustadjalilova Xurshida Aliyevna</b>	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
<b>Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich</b>	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
<b>Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich</b>	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
<b>Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
<b>Yuldashev Iskandar Bahromovich</b>	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar .....	86
<b>Jiyanova Nargiza Esanboyevna</b>	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
<b>Z. Abdikarimova, S. Madaminov</b>	
Savdo korxonalarini boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
<b>Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov</b>	
Sociological Assessment of Migration Processes .....	102
<b>Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli</b>	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy .....	112
<b>Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich</b>	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
<b>Эркинов Шахзод Баходир ўғли</b>	





Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	125
<b>Abirkulova Sohijamol</b>	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan) .....	130
<b>Bakhrom Nomazov</b>	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	136
<b>Bozorova Saxobat Abdujapparovna</b>	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
<b>Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli</b>	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli .....	148
<b>Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>	
Agroklastarlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish .....	155
<b>G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li</b>	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks .....	160
<b>Juraev K. T.</b>	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish .....	164
<b>Mamasoatov Dilshod Ravshanovich</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati.....	169
<b>Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich</b>	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
<b>Rahmatullayeva Dilbar Olimovna</b>	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..	181
<b>Raxmatov Akmal Anvar o'g'li</b>	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
<b>Rofeeva Rukhshona Shavkatovna</b>	
Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimi.....	192
<b>Sabirova Asal Shuhratovna</b>	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region .....	196
<b>Shakhzod Zokhidov</b>	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish .....	202
<b>Kadirova Shaxnoza Ilhomovna</b>	
Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
<b>Usmonov Baxodir Suvonqulovich</b>	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari .....	211
<b>Nasimov Shavkat Vasiyevich</b>	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
<b>Zunnunova Xulkar Muxtorovna</b>	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish.....	225
<b>Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich</b>	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari .....	229
<b>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b>	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
<b>Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich</b>	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
<b>Eshonqulov Azamat Abdiraximovich</b>	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
<b>Xidirov Alimardon Dagarovich</b>	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English .....	248
<b>Nilufar Turdiyeva</b>	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati .....	252
<b>Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li</b>	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi .....	256
<b>G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev</b>	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации .....	260
<b>Каюмова Паризода</b>	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...	266
<b>G. I. Abdulxamidova</b>	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива .....	272
<b>Shahzad Zokhidov</b>	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise .....	275
<b>Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich</b>	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан .....	282
<b>Холбекова Дилобар Расулжон кизи</b>	



# AYOLLARNING INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA KRAUDFANDING PLATFORMASINING IJTIMOIIY- IQTISODIY AHAMIYATI

**Bozorova Saxobat Abdujapparovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasini ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritilgan bo'lib, shuningdek, kraudfanding platformasi orqali moliyalashtirish natijalaridagi gender bilan bog'liq farqlar, Kraudfanding platformasi bo'yicha tavsiflovchi ma'lumotlar, ayollar inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding texnologiyasining ahamiyatini oshirishda Facebook, Vkontakte, Twitter va boshqalar ijtimoiy tarmoqlar roli o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** kraudfanding, platforma, inson kapitali, ta'lim, gendr tafovut, ishsizlik, ayol rahbarlar, STEM.

**Abstract:** The article highlights the socio-economic importance of the crowdfunding platform in the development of women's human capital in Uzbekistan, and also examines gender differences in the results of financing through the crowdfunding platform, descriptive information on the crowdfunding platform, the role of social networks Facebook, VKontakte, Twitter and others in increasing the importance of crowdfunding technology for the development of women's human capital.

**Key words:** crowdfunding, platform, human capital, education, gender gap, unemployment, women leaders, STEM.

**Аннотация:** В статье освещается социально-экономическое значение краудфандинговой платформы в развитии человеческого капитала женщин в Узбекистане, а также исследуются гендерные различия в результатах финансирования через краудфандинговую платформу, описательная информация по краудфандинговой платформе, роль социальных сетей Facebook, Вконтакте, Twitter и других в повышении значимости технологии краудфандинга для развития человеческого капитала женщин.

**Ключевые слова:** краудфандинг, платформа, человеческий капитал, образование, гендерный разрыв, безработица, женщины-лидеры, STEM.

## KIRISH

Axborot jamiyati va yangi iqtisodiyot taraqqiyoti insonni birinchi o'ringa olib chiqadi va uning rivojlanishi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy o'sish vositasi, balki ijtimoiy taraqqiyotning maqsadi va mezon sifatida qaralmoqda.

Ma'lumki, iqtisodiyotda "kapital" tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha aktivlarni anglatadi. Biroq, chuqur ma'noda, inson kapitali shunchaki tashkilot uchun ishlaydigan odamlarning jismoniy mehnatini anglatmaydi. "Inson kapitli" – bu tashkilotga muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradigan odamlar tomonidan olib keladigan nomoddiy fazilatlarining to'liq to'plamidir. Bularning bir nechtasiga ta'lim, mahorat, tajriba, ijodkorlik, shaxsiyat, salomatlik va axloqiy xususiyatlar kiradi.

Umuman olganda, inson kapitali – bu insonning mehnatni iqtisodiy qiymatini oshiradigan tarzda bajarishi uchun yordam beradigan bilim, ko'nikma, tajriba va ijtimoiy fazilatlar yig'indisidir [1].

Inson kapitalini rivojlantirish – bu insonda moddiylashtirilgan bilim va uning samarali mehnat qilish qobiliyati bo'lib, ulardan samarali foydalanish aholi turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish imkoniyatidan foydalanish imkonini beradi. Inson kapitali – bu alohida iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning asosiy tadqiqot muammosi insonning mehnat qobiliyatini belgilaydigan jismoniy va aqliy qobiliyat-lari yig'indisi tufayli inson kapitalining o'ziga xos xususiyatidir.

O'zbekistonda ham ayollarning mehnat sohasidagi imkoniyatlarni yaxshilash bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning huquqiy asosi sifatida bir qancha Qonun va qarorlar qabul





qilindi, jumladan, 2019-yil 2-sentyabrda O'RQ-562-sonli "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirdagi Mehnat Kodeksi tasdiqlandi.

Kraudfanding (crowdfunding, crowd – "olomon" va funding – "moliyalashtirish") – bu internet texnologiyasi va xayriya maqsadlari, ijtimoiy loyihalar va ijtimoiy ahamiyatga ega tijorat startaplari (innovatsion biznes loyihalari) uchun mablag'larni jalb qilishning ma'lum bir tamoyilidir. Kraudfandingning asosiy prinsipi internet platformalari orqali boshqa odamlar yoki tashkilotlarning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash uchun o'z mablag'lari va boshqa resurslarini ixtiyoriy ravishda birlashtirgan odamlarning jamoaviy hamkorligi uchun sharoit yaratishdir. Moliyaviy resurslar, mahsulot yoki xizmat yaratish, muhtojlarga yordam berish, tadbirlar o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab odamlardan jalb qilinadi. Kraudfanding – kraudsorsing turlaridan biri bo'lib, Internetdan foydalangan holda muammoni hal qilish uchun ko'ngillilar jalb qilinadi.

Ayollar inson kapitalini rivojlantirish esa ularni o'qitish, ta'lim imtiyozlari, oilalarga yordam berish va ayollar uchun maxsus stipendiya va grantlarni moliyalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi [2]. Inson kapitali nazariyasiga ko'ra, insonlarga yetarli miqdordagi sarmoya kiritilishi iqtisodiyotning o'sishiga olib keladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda ma'lumotlilik darajasining yuqori bo'lgan aholining ko'p daromad topishi va ko'proq pul sarflashga moyilligi kuzatilgan, bu esa iqtisodiyotni rag'batlantiradi.

Ushbu yondashuv inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlarini aks ettiradi, ya'ni, ular aql, sog'liq, bilim, sifatli va samarali mehnat va hayot sifati kabilar. Inson kapitali tushunchasini shaxsning ta'lim va amaliy faoliyati jarayonida egallagan intellektual qobiliyatlari va amaliy ko'nikmalari ko'rinishidagi maxsus kapital sifatida talqin qilish mumkin. Ushbu talqin shuni ko'rsatadiki, inson kapitalining mavjudligi odamlarning ishlab chiqarishda ishtirok etish qobiliyatini anglatadi.

Odamlarning ishlab chiqarishda ishtirok etish qobiliyati korxonalar tomonidan inson kapitali konsepsiyasiga qiziqishni belgilaydi, chunki inson kapitalidan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, ya'ni, yaratilgan kommunal xizmatlar hajmining oshishi, shuning uchun korxonaning iqtisodiy faolligi darajasi oshadi. Inson kapitali konsepsiyasi bir necha tushunchalar doirasida aniqlanadi, jumladan, iqtisodiy nazariya, xodimlarni boshqarish, bu esa o'z navbatida inson resurslarini boshqarish va inson kapitalini boshqarishni farqlaydi. Shunday qilib, inson kapitali bevosita kapital sifatida va maxsus resurs sifatida namoyon bo'ladi.

Inson kapitali sifatiga gender nuqtayi nazarini o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega, chunki u ta'limni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va umuman ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muammolar va tendensiyalarni ko'rish imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Inson kapitalining nazariy va metodologik asoslari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Muammoni o'rganishga katta hissa qo'shgan S.P. Vigurskaya, A.I. Dobrinin, S.A. Dyatlov, I.V. Ilyinskiy, M.A. Kazaryan, R.I. Kapelyushnikov, A.P. Kolyadin, B.V. Korneichuk, Yu.A. Korchagin, A.V. Koritskiy, M.M. Kritskiy, S.A. Kurganskiy, O.V. Losev, V.I. Martsinkevich, L.G. Simkina, V.G. Smirnov, I.V. Soboleva, I.V. Skoblyakova, S.G. Strumilin, T.L. Sudova, G.N. Tuguskin, K.A. Ustinova, T.R. Xannanova, E.D. Tsurenova, O.S. Chechina, T.A. Shterzer, M.A. Shchebratyx, A. Smit, D. Ricardo, K. Marks, M. A. Armstrong, G. Bekker, J. Ben-Porat, M. Blaug, G. Bouyen, A. Bruking, J. Bun, E. Denison, D. V. Jogenson, R. Dornbusch, R. Lukas, P. Rohmer, M. Varner, W. Petty, L. Valras, J. Kendrick, D. Litiye, G.D. McLeod, J. Mill, J. Minser, A. Marshall, F. Machlup, R. Solow, T. Styuart, F.V. Teylor L.Tyurov, J.fon Tunen, T.Uitshteyn, I.Fisher, V.Far, J.Xiks, L.Xendriks, A.Fliaster, T.Shults, L.Edvidson, L.Fraumeni va boshqa olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir [3].

Keyingi yillarda mamlakatimizda ham Q.X.Abduraxmonov, A.O'lmasov, A.Vahobov, M.Saidov, I.A.Bakiyeva, M.Q.Pardayev, B.A.Abdukarimov, K.Saidov, M.Muxammedov, D.Aslanova, R.Seytmuradov, S.Isxakovalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilib, olimlar o'z tadqiqotlarida inson kapitali mazmun mohiyati yoritib berishgan [4].

Inson kapitali tushunchasini ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar o'z tadqiqotlarida o'rganganlar. Birinchi marta 1961-yilda bu iborani amerikalik Teodor Shuls ishlatgan va uning izdoshi G. Bekker 1965-yildan buyon inson kapitaliga qo'yilmalar samaradorligini asoslab, inson xulq-atvoriga iqtisodiy yondashuvni shakllantirgan holda bu g'oyani ishlab chiqqan. Inson kapitali nazariyasi asoslarini yaratgani uchun ular iqtisod bo'yicha Nobel mukofotlari bilan taqdirlanganlar (1979-yilda Teodor Shulsga, 1992-yilda G. Bekkerga). Teodor Shuls inson kapitali nazariyasi rivojlanishining dastlabki bosqichi shakllanishiga, uning ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi va ommalashishiga ulkan hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib ishlab chiqarish omili sifatida inson kapitali tushunchasini kiritdi. Va u inson kapitalining sanoat va postindustrial iqtisodiyotning asosiy dvigateli va poydevori sifatidagi rolini tushunish uchun juda ko'p ish qildi [5].

Bizning fikrimizcha, inson kapitali – bu shaxsning nomoddiy boyligi bo'lib, qonunda ta'qiqlanmagan faoliyat bilan shug'ullanishida foydalanishi mumkin bo'lgan, o'ziga (egasiga) daromad (foйда) keltiruvchi, genetik va o'zlashtirilgan, ijobiy sifat va miqdor xususiyatlariga ega bo'lgan barcha komponentlar majmuasidir.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotnomalari va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, makroiqtisodiy tahlil, guruhlash, eksperiment, dekompozitsiya, adaptiv usullar, innovatsion va integratsion yondashuvlar, O'zbekistond ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasini qo'llash imkoniyatlarini aniqlashda foydalaniladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatlarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy o'sishida inson kapitalining roli va inson kapitalini rivojlantirishda gender tenglik ahamiyatining kuchayishi munosabati bilan 2014-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Inson taraqqiyoti indeksi" hisob-kitobidan "Inson kapitali indeksi" (HCI) ga o'tishga qaror qildi. HCI 46 ta ko'rsatkichga asoslangan bo'lib, ularning asosiylari mamlakat yoki mintaqa aholisining turmush darajasi, ta'limi va uzoq umr ko'rish darajasidir. Dunyoda inson kapitalining rivojlanishiga oid The Human Capital Report 2021-yil hisobotini e'lon qildi. Jami 2021-yilda reytingda 174 ta davlat ishtirok etdi. HCI qiymati bo'yicha jahon reytingida birinchi o'rinni Singapur egalladi (0.88); undan keyin Gong Kong (0.81), Yaponiya (0.80), Janubiy Koreya (0.80), Kanada (0.80); Finlandiya va Shvetsiyalar ham 0.80 ko'rsatkichlarni qayd etdi.

Shuningdek, Human Capital Report 2021-yilda jahon miqyosida ayollarning inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha ularning potensialini tan olgan holda ishga yollanishdagi statistikani taqdim etdi <sup>[6]</sup>. (1-jadval).

1-jadval: Gender bo'yicha ishchi kuchining xilma-xilligi

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021
Jami ayollar, %	5.3	5.5	5.6	5.3
Jami erkaklar, %	94.7	94.5	94.4	94.7
Barcha turdagi boshqaruv lavozimidagi ayollar, %	23	23	21	21
Kichik boshqaruv lavozimidagi ayollar, %	23	23	21	21
Yuqori boshqaruv lavozimidagi ayollar, %	21	23	22	28
Tadbirkorlik sohasidagi ayollar, %	36	38	37	35
Hunarmandchilik sohasidagi ayollar, %	3	3	3	2
STEM sohasidagi ayollar, %	20	18	16	16

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, jahon miqyosida jami ishchilar orasida ayollarning ulushi 2021-yilda 5.3 foizga teng bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 0.3 foizga kamaygan. Jami boshqaruv lavozimidagi va kichik boshqaruv lavozimidagi ayollar ulushi 2018-yilda 23 foizni tashkil etgan bo'lsa 2021-yilda bu ko'rsatkich pasayib 21 foizni tashkil etgan. Yuqori boshqaruv lavozimidagi ayollar ulushi esa o'tgan 4 yil mobaynida 7 foizga ko'tarilgan bo'lib, 2021-yilda 28 foizni tashkil etgan. Bu holat ayollarning mehnat potensialiga nisbatan yuqori baho berilganligidan dalolatdir. Biznes sohasida faoliyat yuritayotgan ayollar ulushi ham 2020-yilga nisbatan 2 foizga pasaygan va 2021-yilda 35 foizga yetgan. STEM (ya'ni, ilm-fan, texnologiya, injiniring va aniq fanlar) sohasida band ayollar ulushi ham 2018–2021-yillar davomida 20 foizdan 16 foizga kamaygan.

Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasi imtiyozlarni moliyalashtirishda mablag'larni jalb qilish uchun qo'shimcha vosita sifatida qaralishi mumkin. Chunki, kraudfanding – bu turli shaxsiy xayriyalar to'plami, bu usul pul yig'ish uchun o'z veb-saytini yaratish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar uchun ham mos keladi. Kraudfanding platformasi orqali "xususiy donorlar" ya'ni homiylar elektron ro'yxatdan o'tadilar va to'lovlarni amalga oshiradilar. Kraudfandingning mablag' yig'ish faoliyatining boshqa usullaridan afzalligi moliyaviy jarayonlarning shaffofligi va samaradorligi bo'lib, bu nafaqat jismoniy shaxslarni, balki tashkilotlarni ham jalb qiladi.

Bugungi kunda kraudfanding platformasi erkak va ayol tadbirkorlar uchun innovatsion yo'lni taklif qilib, moliyalashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonini demokratlashtirishga yordam beradi. Endilikda iste'molchilar (ya'ni, iste'molchi-investorlar yoki homiylar) moliyalashtirish natijalaridan qoniqish hosil qilishi uchun gender masalalariga emas balki loyihalarning sifatligiga e'tibor qaratishmoqda.

Kraudfanding mexanizmi juda oddiy va homiylar uchun ham, yordam olishni xohlovchilar uchun ham qulay. Ijtimoiy loyiha tashabbuskori bo'lgan ayollar tomonidan ushbu platforma orqali barcha kerakli ma'lumotlar va yordamchi materiallar to'planishi mumkin. Agar loyiha kerakli miqdordagi pulni yig'sa, u holda loyiha mualliflari ularni faqat hisobdan olib qo'yishlari, homiylarga minnatdorchilik bildirishlari va loyihani amalga oshirishlari mumkin. Kraudfanding platformasi turiga qarab, agar loyiha belgilangan miqdorni to'liq yig'ib olgan bo'lsa, mablag'ni olib qo'yish yoki o'tkazilgan pulni, hatto to'liq yig'ilmagan bo'lsa ham olib qo'yish mumkin. To'liq belgilangan miqdor yig'lgandan keyingina pulni yechib olish mumkin bo'lgan kraudfanding platformalarida, agar loyihada zarur mablag'lar yig'ilmasa, ular homiylarning hisob raqamlariga qaytariladi, ular ushbu mablag'larni boshqa loyihalarga o'tkazishlari mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kraudfanding loyihalarining taxminan 46 foizi kerakli miqdorni yig'adi.

Loyiha muallifining asosiy sa'y-harakatlari uni kraudfanding platformasining o'zida ommalashtirish bo'lishi kerak. Buning uchun mualliflar potensial homiylarni qiziqtiradigan yuqori sifatli inson kapitalini yaratishi va taklif qilishi kerak. Bu yerda hamma narsa yaxshi taqdim etilgan loyihaga tayanadi, uning eng muhim elementlari loyihaning o'ziga xosligi, asosligi, natijaning ravshanligi, hissiy taqdimot, to'planning maqsadliligi va boshqalar bo'ladi.

Ayollar quyidagi maqsadlar bo'yicha o'z loyihalarini kraudfanding platformasiga joylashtirishlari mumkin:

1. Ehtiyojmandlarga yordam berishga qaratilgan xayriya va ijtimoiy loyihalar bo'yicha;
2. Ta'limga sarmoya, ijodiy loyihalar - ijodkorlikni moliyalashtirish bo'yicha;
3. Siyosiy va jamoat loyihalari fuqarolik tashabbuslari bo'yicha;
4. Biznes loyihalari, yangi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalarni yaratish uchun mablag'lar jalb qiladi.

Xayr-ehsonlar odatda ixtiyoriy harakatlar bo'lib, ular xayrixohlarning altruistik his-tuyg'ularidan kelib chiqadi, shuning uchun ko'p hollarda ular oluvchi tomonidan loyihani amalga oshirishdan tashqari hech qanday majburiyatlarini o'z ichiga olmaydi. Inson kapitali rivojlantirishga qaratilgan barcha sohalar esa natijadorlikni talab qiladi.

Gender tafovutlarga qaramasdan kraudfanding platformasi orqali moliyalashtirilgan ayollar loyihalarining samarali natija berganligini tahlil etish quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\text{Funding success}_i = \alpha_i + \beta_{1i} X_{\text{campaign-related}} + \beta_{2i} X_{\text{venture promotion}} + \beta_{3i} X_{\text{female ratio}} + \beta_{4i} X_{\text{other entrepreneur-related}} + \beta_{5i} X_{\text{venture-related}} + \varepsilon_i \quad (1)$$

$$\text{Ln(funding amount)}_i = \alpha_i + \beta_{1i} X_{\text{campaign-related}} + \beta_{2i} X_{\text{venture promotion}} + \beta_{3i} X_{\text{female ratio}} + \beta_{4i} X_{\text{other entrepreneur-related}} + \beta_{5i} X_{\text{venture-related}} + \varepsilon_i \quad (2)$$

$$\text{Ln(NoInvestors)}_i = \alpha_i + \beta_{1i} X_{\text{campaign-related}} + \beta_{2i} X_{\text{venture promotion}} + \beta_{3i} X_{\text{female ratio}} + \beta_{4i} X_{\text{other entrepreneur-related}} + \beta_{5i} X_{\text{venture-related}} + \varepsilon_i \quad (3)$$

$$\text{Seasoned}_i = \alpha_i + \beta_{1i} X_{\text{female ratio}} + \beta_{2i} X_{\text{other entrepreneur-related}} + \beta_{3i} X_{\text{venture-related}} + \varepsilon_i \quad (4)$$

Ushbu formulalar orqali muvaffaqiyatli moliyalashtirilgan loyihalarda ayollarning ulushi va kraudfanding platformasi orqali tadbirkorlarning moliyalashtirishga moyilligi aniqlanadi.

Ayollar inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasidan foydalanishning xorij tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, Germaniyaning Oldenburg universiteti Moliya va bank ishi kafedrasida professorlari Jyorg Prokop va Dandan Uanglarning Kraudfandingda gender farqlar nomli tadqiqotlariga ko'ra 2021-yil uchun quyidagi ma'lumotlar yig'ildi <sup>[7]</sup>. (2-jadval).

Kraudfanding texnologiya sifatida o'z-o'zidan kuchli rag'batlantiruvchi tarkibiy qismga ega, chunki u loyiha muallifi bo'lgan ayollarga qiziqarli narsalarni qilish, o'z orzularini ro'yobga chiqarish, jamiyatga foyda keltirish, homiylarga umumiy ishda ishtirok etishlarini amalga oshirish hamda yangi va qimmatli g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini his qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari qaror qabul qiluvchilar orasida ayollar mavjud bo'lgan va mavjud bo'lmagan korxonalar uchun alohida keltirilgan, unga ko'ra obs.-kuzatuvlar soni, mean-o'rtacha ko'rsatkich, std.dev.- dispersiya, ko'ra tanlab olish og'irligi, t-testlar hisoblangan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'rtacha hisobda ayol boshqaruvchi direktorlari bor korxonalar kamroq kapital jalb qiladilar.



2-jadval: Kraudfanding platformasi orqali moliyalashtirish natijalaridagi gender bilan bog'liq farqlar

	255 ta loyiha takliflari				231 ta dastlabki loyiha takliflari			24 ta tajribali loyiha takliflari		
	Ko'rsatkichlar	Muvaffaqiyatli	Miqdori	Investorlar soni	Muvaffaqiyatli	Miqdori	Investorlar soni	Muvaffaqiyatli	Miqdori	Investorlar soni
Venture group (female ratio=0)	Obs.	236	236	236	215	215	215	21	21	21
	Mean	0,371	247,092	307	0,369	229,753	294	0,388	424,787	437
	Std. dev.	0,484	302,74	308	0,484	249,625	294	0,499	612,078	408
	Min.	0	1250	2	0	1250	2	0	50	28
	Max.	1	3000000	1978	1	1,500,000	1978	1	3,000,000	1826
Venture group (female ratio >0)	Obs.	19	19	19	16	16	16	3	3	3
	Mean	0,485	220,707	275	0,521	233,216.4	296	0,297	156,185	166
	Std. dev.	0,513	181,634	215	0,516	194,100.5	229	0,56	89,379	58
	Min.	0	50,950	61	0	50,950	61	0	80,000	107
	Max.	1	800000	846	1	800000	846	1	260500	224

Muayyan loyiha uchun to'plangan mablag'lar miqdori undagi g'oyaning dolzarbligini bevosita aks ettiradi va uning jamiyatdagi dolzarbligini ko'rsatadi. Kraudfanding yordamida ijtimoiy loyiha tashabbuskori bo'lgan ayollar nafaqat homiylar tomonidan moliyaviy resurslar va o'z kapitaliga sarmoyani qo'lga kiritadilar, balki davlat tomonidan ham har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Jamiyat ularga eng muhim muammolarni hal etishda va ayollarning xohish-irodasini bajarishda professional sifatida ishonadi. Sarmoya oluvchilar moliyaviy va ijtimoiy tashkilotlar shaklidagi vositachilar beradigan imkoniyatlar bilan cheklanib qolmay, faqat natijalarga erishish uchun o'zlarining kuchlari va resurslarini to'plash orqali jamiyatga kerak bo'lgan narsalarni qilish uchun vositalar va vakolatlariga ega bo'ladilar[8].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ayollar inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding texnologiyasining ahamiyatini oshirishda Facebook, Vkontakte, Twitter va boshqalar ijtimoiy tarmoqlar asosiy rol o'ynaydi va bu sarmoya kiritish paydo bo'lishi uchun sharoit yaratdi. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida tashkil etilgan ijtimoiy hamjamiyatlarda doimiy ravishda axborot almashinuv mavjud bo'lib, bu sarmoya kiritish sohasida kerakli tarkibning paydo bo'lishi, uni tarqatish va muhokama qilish uchun imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlar axborotni tez tarqatish orqali har qanday ijtimoiy muammoni hal qilish uchun eng qisqa vaqt ichida ulkan inson resurslarini safarbar etish imkoniyatiga ega. Shu tarzda ushbu ijtimoiy tarmoqlar kraudfanding platformalari tomonidan moliyaviy kapitalga aylantirish imkonini beruvchi ijtimoiy kapital yaratadilar.

Bugungi kunda Planeta.ru loyihalarini toifalar bo'yicha taqsimlash quyidagicha ko'rinishni tashkil etadi:

- musiqa -18%
- jamiyat – 18%
- kino – 16%
- adabiyot va ilm-fan – 15%
- xayriya – 14%
- tadbirkorlik – 10%

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dastlabki yillarda musiqa loyihalari orqali o'z tizimini ommalashtirgan kraudfanding platformasi bugungi kunda jamiyat shu jumladan ayollarning ijtimoiy loyihalari uchun teng miqdorda moliyalashtirish jarayonlarini amalga oshirmoqda, chunki ommabopligi bo'yicha birinchi o'rinda jamoatchilik tashabbuslariga sarmoya kiritilishi orqali kraudfanding tomonidan fuqarolik jamiyati rivojiga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Kraudfanding yordamida ular nafaqat yuqori natijalarni qayd etishadi, balki ijtimoiy muammolarni ham hal qilishadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Kraudfanding bilan parallel ravishda butun dunyoda boshqa jamoaviy moliyalashtirish mexanizmlari rivojlanmoqda, masalan, obuna va ko'ngilli mablag' yig'ish. Bularni kraudfanding texnologiyasi bilan adashtirmaslik lozim. 2013-yildan beri 100 000 dan ortiq ijodkor Patreon platforma orqali o'z muxlislaridan 1 milliard dollardan ortiq mablag' olgan. Bu obuna xizmati bo'lib, bunda o'zining sevimli musiqachilari, rassomlar, taniqli shaxslar, bloggerlar va hokazolarni kuzatib borish orqali qo'llab-quvvatlashi mumkin, huddi kraudfandingda bo'lgani kabi, o'z hissasi uchun turli bonuslarni olishi ham mumkin. Ammo bu kraudfanding emas, shunchaki shaxs faoliyatini kuzatib boorish uchun obuna bo'lish va uning chaqiruvlarida ishtirok etish orqali faollik ko'rsatish hisoblanadi.

Kraudfanding bo'yicha inson kapitaliga sarmoya kiritishni faqatgina ijtimoiy loyihalar misolida tushunish kerak emas. Chunki kraudfanding bo'yicha yirik biznes loyihalari ham amalga oshiriladi. Kraud moliyalashtirish korporatsiyalar uchun begona tushuncha emas. Kino prodyuserlari yaratilajak kinoga yoki yozuvchilar tomonidan yoziladigan kitobga bo'lgan qiziqishni aniqlash uchun bo'lajak filmni yoki kitob nashriyatlarini targ'ib qilish uchun kraudfanding loyihalaridan (kino yoki kitob nomini, annotatsiyani, rolda ishtirok etishi mumkin bo'lgan mashxurlarni reklama qilish orqali) foydalanganidek, yirik biznes ham marketing bo'yicha loyihalarni amalga oshiradi. Masalan, talabni tekshirish, mahsulotni hali ommaviy ishlab chiqarishga kirmagan holda bozorga va iste'molchilar ongiga moslashtirish, birinchi partiyani ishlab chiqarish uchun oldindan buyurtmalarni yig'ish va hokazolar orqali.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi axborot-texnologiyalar rivojlangan asrda ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishning eng qulay va optimal yechim beruvchi usuli kraudfanding platformalaridan foydalanish bo'lib, bu jamiyatdagi muammolar va tashabbuskorlik talab etiladigan sohalarini ommaga ma'lum qilish bo'yicha ham yaxshi samara beradi.

Ammo o'z o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ayollar inson kapitalini rivojlantirish va ayollarga har tomonlama ko'mak berish eng zarur bo'lgan ayrim davlatlarda internetning past sifatda ishlashi, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past daromad darajasi, elektron tijoratning hali ham sust rivojlanishi kabi omillar sabab kraudfanding texnologiyasi ham yaxshi ishlamasligi dolzarb muammoligicha qolmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Хаджалова Х.М., Савзиханова С.Э. Качество человеческого капитала: гендерный аспект // Креативная экономика. – 2018. – Том 12. – № 4. – С.481-490. doi:10.18334/ce.12.4.39056
2. С.В.Гриненко, И.С.Богомолова, Е.К.Задорожная – Стратегия развития экономики. "Гендерные особенности развития человеческого капитала", 2017 . с 20-36.
3. Дорофеев А.Ф. Развитие человеческого капитала в аграрном секторе России. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Белгород. 2018 г. - 404 стр.
4. Шарипов М.Л., Кошанова Н.М. Инсон капитали моҳияти, унинг давлат ва жамият тараққиётидаги аҳамияти. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00728 Academic Research, Uzbekistan 1259 www.ares.uz
5. Навруз-Зода Б.Н., Шомиев Г.У. Исторические предпосылки развития теории человеческого капитала. Academy № 11 (14), Россия, Москва, 2016, ст.19.
6. Union Pacific/Human Capital Report, 2021
7. Jörg Prokop, Dandan Wang. "Small Business Economics" - Is there a gender gap in equity-based crowdfunding – 2021
8. Хау Дж. Краудсорсинг. Коллективный разум как инструмент развития бизнеса. М.: Альпина Паблишер, 2012. 288 с.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jitimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

